



## **XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI**

---



---

2022 - yil 25 - yanvar

VI-53-21-7-93-K/22

Bulung'ur tuman hokimligi

### **Bulung'ur tumani Adliya bo'limi tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "Davlat huquqiy siyosatini amalga oshirishda adliya organlari va muassasalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5415-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3666-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tuman Adliya bo'limi tomonidan 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axborotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining LIII sessiyasi

#### **QAROR QILADI:**

1. Tuman Adliya bo'limi boshlig'i A.Kuylanovning tuman Adliya bo'limining 2021-yil davomida amalga oshirilgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman Adliya bo'limi (A.Kuylanov)ga:

huquqni qo'llash amaliyotini o'rghanish va tahlil qilish, uning barqarorligi va bir xillagini ta'minlash hamda korxona va tashkilotlarda qonun buzilish holatlarini oldini olish borasida targ'ibot ishlarini olib borish;

normativ-huquqiy hujjatlarni tumandagi barcha tashkilot, idora va muassasalarga o'z vaqtida yetkazish, ularning normativ-huquqiy hujjatlar bilan ishslash samaradorligini oshirish va bu borada targ'ibotlarni yanada kuchaytirish;

doimiy ravishda tumandagi maktabgacha ta’lim tashkilotlarida, o‘rtalim maktablarida boshqa davlat organlari hamda tashkilotlarida Mehnat qonunchiligiga, xodimlar bilan tuzilgan mehnat shartnomasi talablariga rioya qilish, xodimlarni rag‘batlantirish va amalga oshirilgan ishlarni muntazam o‘rganish, tahlil qilish choralarini ko‘rish vazifalari topshirilsin.

3. Tumandagi barcha korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari zimmasiga O‘zbekiston Respublikasi “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga qat’iy rioya etilishi, har bir murojaatni belgilangan muddatlarda hal etilishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosarlari, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari hamda tuman Adliya bo‘limi tashkilotlar bilan hamkorlikda:

aholini, voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug‘ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari bilan birgalikda yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini shakllantirish yuzasidan hamkorlikda ish yuritishni samarali yo‘lga qo‘yish;

tuman hokimining normativ hususiyatiga ega bo‘lgan qarorlarini huquqiy ekspertizadan o‘tkazilmasdan qabul qilinishiga chek qo‘yish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar talablarining buzilishiga, fuqarolarni qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga zarar yetkazish bilan bir qatorda, normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida qarama-qarshilik va turli ziddiyatlarni keltirib chiqarishni oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ko‘rish;

fuqarolar huquqiy savodxonligini oshirishda keng jamoatchilik, xususan, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari ham faol ishtirok etishlarini ta’minalash;

bunda xalq deputatlari tuman Kengashining har bir deputati saylovchilar bilan, o‘zları qaysi siyosiy partiyadan saylangan bo‘lsalar, shu partiya vakillari bilan muntazam uchrashuvlar o‘tkazib borish;

tushuntirish ishlariga davlat organlarini, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar, advokatura va jamoat birlashmalari vakillarini jalb qilish tavsiya etilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (T.Radjabov) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



N.Mamadiyarova